

COLLECTION

Innovation, integration and modern
problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and
practice

www.d-pressa.com

31
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and practice collection of materials of the
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 1001 pp.

Editors in charge: Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

AKADEMIK LITSEYLARDA TARIXIY-BADIIY ASARLARDAGI ANTROPONIMLAR TARKIBINI O'RGANISH

Buronova Xolida Toshtemirovna

O'zMU Jizzax filiali assistenti

Tolipova Odina Husan qizi

O'zMU Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: So'nggi yillarda mamlakatimiz tilshunoslari nomshunoslik (onomastika)ning toponimiya, etnonimiya, antroponomiya, gidronimiya kabi sohaları yuzasidan bir qancha muhim ishlarni e'lon qildilar. Natijada akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fani bo'yicha darsliklarga nomshunoslik masalalarini o'rganish alohida mavzu sifatida kiritildi. Ushbu maqolada nomshunoslikni badiiy asarlar orqali o'tish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, nomshunoslik, antroponim, toponim, gidronim, zoonim, komponent.

Akademik litsey talabalariga "Nomshunoslik" mavzusida dars beradigan o'qituvchi dastlab "O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati" (2006), "O'zbek onomastikasi" nomli bibliografik ko'rsatkich (2008) va T.Nafasovning "Qahqadaryo qishloqnomasi" (2010), B.Yo'ldoshevning "O'zbek onomastikasi masalalari" (2011) asarlari bilan ularni tanishtiradi, mamlakatimizda onomastika fanining rivojlanishi, bunda E.Begmatov, S.Qorayev, Z.Do'simov, B.O'rinboyev, T.Nafasov, N.Xusanov, T.Enazarov, N.Uluqov, N.Begaliyev, A.Turobov kabi olimlarning ulushi haqida ma'lumot beradi. Shundan keyin dars davomida o'quvchilarga "Nomshunoslik" (onomastika) termini, uning mazmuni haqida asosli ma'lumot berishga harakat qilinadi. Buning uchun darslikda keltirilgan quyidagi ta'rifdan foydalanish maqsadga muvofiq: "Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik bo'limiga onomastika (lotincha onyma so'zidan olingan) deyiladi". O'qituvchi bu ta'rifni "O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati" va boshqa lug'atlarda berilgan ta'riflar bilan qiyoslaydi hamda o'quvchilarga onomastika juda keng, ko'p tarmoqli soha ekanligini izohlashga harakat qiladi. Shaxslarga qo'yilgan nomlar (antroponimlar), geografik obyektlarning nomlari (toponimlar), hayvon nomlari (zoonimlar), suv havzalari inshootlariga atab qo'yilgan nomlar (gidronimlar) kabilar ham onomastikaning o'rganish obyekti tarkibiga kiradi.

O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga onomastik birliklarni bir-biridan farqlash, ularni nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olish malakasiga o'rgatishi lozim. Buning uchun u darsda oddiy suhbat, test ishlash, viktorinalar tashkil etish, chizma va slaydlardan foydalanish, internetdagi "Onomastika" deb nomlangan vebsayt materiallarini qo'llash kabi xilma-xil usullardan foydalanishi lozim bo'ladi. O'quvchilar "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan mustaqil ish daftari tutib, o'zlari o'qigan badiiy asarlarda qo'llagan onomastik birliklarni yozib borsalar, ularning

matndagi uslubiy xususiyatlarini izohlashga intilsalar “Nomshunoslik” mavzusini o‘rganishda olingan bilimlarni yanada mustahkamlash uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Akademik litseylarda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan “Nomshunoslik” bo‘yicha olingan bilim va ko‘nikmalar tarixiy-badiiy asarlarda o‘rganish, sinfdan tashqari ishlar, “Nafosat gulshani” to‘garagi mashg‘ulotlari jarayonida izchil davom ettiriladi. Masalan, akademik litseylarda o‘quvchilarga “Adabiyot” fanidan Muhammad Rizo Erniyozbek Ogahiy ijodi bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borilgandan keyin taniqli yozuvchi Erkin Samandarning “Quyuni izlari yoxud Ogahiy” tarixiy romani (Toshkent 2009)ni diqqat bilan o‘qib chiqish va asardagi kishi ismlari, laqablar, taxalluslar (antroponimlar)ni mustaqil ish daftariga alifbo tartibida yozib chiqish, shu asosda bu antroponimlarning komponent tarkibini aniqlash vazifasi topshiriladi. Natijada o‘quvchilar bu tarixiy-badiiy asardan to‘plangan 150 ga yaqin antroponimlarni komponent tarkibiga ko‘ra quyidagicha guruhlariga ajratadilar hamda har bir guruhga tegishli misollar keltiradilar:

1. Birinchi komponenti “abdu(l)” so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Abdumalik to‘ra kabilar: “Abdumalik to‘raning ta‘rifini yaxshilikka yo‘yar edi u. Buxoro bilan oqposhsho qo‘shinlari o‘rtasidagi jang-jadallardan, amir Muzaffarning mag‘lub bo‘lib buxoroliklarning izzat-nafsigaga tekkan sulhga imzo chekkanidan xabardor edi” (Q.i.,6) kabilar.

2. Birinchi komponenti “amir” so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Amir Muzaffar, Amir to‘ra kabilar: “Buni Mavlono ham sezardi, albatta. Shunday bo‘lsa-da, chiqmagan jondan umid deganday ikki yon qo‘shni –Xorazm va Buxoro yog‘iyga qarshi birlashmog‘ini istar, Abdumalik to‘raning kelishi esa bunga imkon berishiga ishonchi katta edi. Qulposhsholik amir Muzaffarni quyushqondan chiqarmay qo‘ymas...” (Q.i.,36) kabilar.

3. Ikkinchi komponenti “sardor” so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Malangxon sardor, Chori sardor, Sori sardor, Qora sardor kabilar: “Abdumalik to‘ra o‘ylab o‘yining tagiga yetolmas edi. Uning o‘limi Malangxon sardorga nechun kerak bo‘lib qoldi ?..” (Q.i.,29) kabilar.

4. “Bek” komponenti qo‘shimcha sifatida qo‘llangan antroponimlar: Bobobek, Jo‘rabek kabilar: “Abdualik to‘ra safdoshlari Jo‘rabek va Bobobeklar yog‘iyga yon bosish. Oqposhsho ularni o‘z qanoti ostiga olish va ikkovigada general maqomin berish” (Q.i.,12).

5. Birinchi komponenti “general” so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: General-gubernator fon Kaufman, General Cherkasskiy, General Perovski, General Maniyev kabilar: “Ziyofat itmomig‘a yetdi ersa, Sherg‘ozixondin general Cherkasskiy so‘ramish. Askarlarimiz qay karvonsaroyda turg‘aylar?..” (Q.i.,215).

6. “Xon” komponenti qo‘shimcha sifatida qo‘llangan antroponimlar: Arabmuhammadxon, Malangxon, Muhammad Alixon, Nasrulloxon, Olloqulixon, Rahimqulixon, Sayyid Muhammadxon, Feruzxon, Sherozixon kabilar: “Ammo Xivaga kelishgach, Feruzxon xuzuridagi mashvaratda sardor tiniq suvni loylatishga urunganida amirzoda hayron bo‘lgan bo‘lsa, endi uning manfurligini aniq bilib, terisiga sig‘mayotgan edi” (Q.i.,29) kabilar.

7. Birinchi komponenti “sayyid” so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Sayida’zamboy, Sayid Muhammad, Sayid Muhammadxon kabilar: ”Feruzxon ko‘ngli ikkinchi xulosaga moyil. Negaki u fon Kaufmanning odam bilmas o‘yinlaridan voqif. Uning ishongan usuli-o‘z dushmanining orasini buzish. Sotqin tabiatli odamlarni topish va ularga suyanish. Toshkentning dovruqli boylaridan Sayida’zimboyni, bir necha qal’a hokimlari va elda nufuzli boshqa o‘z tomoniga og‘dirib , ular qo‘li bilan o‘t kovlayotgani ma’lum” (Q.i.,30-31) kabilar.

8. Birinchi komponenti “Muhammad” so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Muhammad Alixon, Muhammad Rahimxon soniy, Muhammad Murod devonbegi, Muhammad Rizo Ogahiy, Muhammad Sharif qozikalon, Muhammad Rizo sardor va hokazo: ”Urganch darvozasini Shomurod inoq va Muhammad Rizo sardor boshliq himoyachilar qo‘riqlamoqda edi” (Q.i.,112) kabilar.

9. Birinchi komponenti “bibi” so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Bibi Robiya kabi: ”Bibi Robiya...Bibi Robiya. Bobojon to‘ra (Feruz) unga uylanganida o‘n yetti yoshlik shahzoda edi...” (Q.i.,135); ”Bibi Robiya baxtli edi. Endi-chi? (Q.i.,135) va hokazo.

10. Ikkinchi komponenti “bibi so‘zi bilan ifodalangan antroponimlar: Oyimxon bibi kabi: ”Shu so‘z va muomalaning o‘zidanoq ayolining kimligini bilib olgan Oyimxon bibi gapni qisqa qildi...” (Q.i.,64) va hokazo.

11. Komponentlardan biri mansab, unvon, kasb-korni bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalangan antroponimlar: Muhammad Murod devonbegi, Rahmatulloh yasovulboshi, Siddiq polvon, Shomurod inoq, Muhammad Rizo sardor, Mammurod devonbegi, Chaqqonboy qovunchi va hokazo.

12. Ikkinchi komponenti kishilarning laqabini bildiruvchi bangi, daroz, qul kabi so‘zlar bilan ifodalanadigan antroponimlar: Jakoy bangi, Cho‘tir qul, Shum qul, Eshim daroz kabi.

“Quyun izlari yoxud Ogahiy” tarixiy romanida ayrim antroponimlarning etimologiyasi, xalq orasida shunday nomlanishining sabablari ham ochib berilgan. Masalan, asarda Sori sardor ismining kelib chiqish sababi quyidagicha izohlagan: ”Oq sardor qavmining azaldan qo‘li uzun, qayga uzatsa yetadi. Ekin-tekin yerlari bisyorligi o‘rniga chorvasi ming-ming. Qoraqumning to‘r-to‘rigacha podalarigacha cho‘zilib ketgan. Xorazmda oltinni sori deyishadi. Sori ismi shundan...” (Q.i.,123).

Shunday qilib, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, taniqli yozuvchi Erkin Samandarning “Quyun izlari yoxud Ogahiy” tarixiy romanidagi antroponimlarning komponent tarkibini akademik litsey o‘quvchilari bilan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘rganish ularning nomshunoslik bo‘yicha auditoriyada olgan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эркин Самандар. Қуюн излари ёхуд Огаҳий (тарихий роман). – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2009. – 252 б.
2. Бегматов Э., Удуков Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. – Наманган, 2008. – 168 б.

3. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили (дарслик). – Тошкент: “Талқин” нашриёти, 2005. – 272 б.
4. Йўлдошев Б., Қурбонов Т. Бадий асар тили ва услуги масалалари (услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. – 164 б.
5. Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – 112 б.
6. Solnyshkina, M., & Buronova, X. (2025, September). YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG ‘U BILIG” ASARIDAGI AYRIM SIFAT SO ‘Z TURKUMIGA OID SO ‘ZLARNING QO ‘LLANISH XUSUSIYATI. In *Scientific practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 353-356).
7. Buronova, X., & Aliqulova Sojida, A. S. (2023). O ‘zbek badiiy asarlarida ekzotizmlarning qo ‘llanish xususiyati. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 5(5).
8. Kamolov D. ETHICS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: EXPLORING THE MORAL AND SOCIAL IMPLICATIONS OF AI IN CONTEMPORARY SOCIETY //SGS-Engineering & Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
9. Цой М., Иброхимов Ш. СОВРЕМЕННАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 24-28.
10. Kamolov D. R. O. G. L. O'zbekistonda demokratiya va axloqning zamonaviy muammolari va yechimlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. NUU Conference 2. – С. 348-352.
11. Абдуназаров С. А., Цой М. П. Реформирование системы образования Республики Узбекистан //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2016. – №. 10-6. – С. 14-17.
12. Kamolov D. GLOBALIZATION PHENOMENON AND GLOBALISM //Journal of Contemporary World Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4-9.
13. Джураев Р. Х., Цой М. П. Подходы и принципы проектирования педагогических программных продуктов //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2015. – Т. 2. – №. 13. – С. 144-146.
14. Kamolov D. Athenian democracy: individual and collective freedom //Semantic Scholar. – 2021.
15. Saitov S., Asrayev S. MECHANISMS FOR INCREASING EMPLOYMENT THROUGH THE DEVELOPMENT OF SOCIAL ENTREPRENEURSHIP //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 335-339.
16. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учкунлари. – 2021.
17. Цой М. П. ЦИФРОВИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ–ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА //Аббасов ББ тарих фанлари бўйича фалсафа доктори Наманган Мухандислик-Қурилиш институти АРХИВ МАНБАЛАРИДА ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ШАҲАРЛАРИНИНГ ТАРИХИНИ ЁРИТИЛИШИ. – 2023. – С. 104.